

This is not registered version of TotalDocConverter
 Sulton-sot qolgan tunlari oshasini to'qaganligiga qiladi. Mashinasini, "Jiguli" desa go'yo ikkita bo'lib qoladigandek, afsus ohangida "Jigul" deb ataydi. Yangiyolmi - chinozlik yo'lovchi chiqib qolsa, mo'maydek pul undiradi-da, yarim kechada shirakayf bo'lib uyiga qaytadi.

Tez-tez zarda qilib onasinikiga ketib qoladigan bezzurriyot xotini bor. Yolg'iz qolgan tunlari Sulton-so'tak sira uyqu ololmay, kechasi bilan u yonboshdan bu yonboshga ag'darilib, ag'anab chiqadi. Saharda esa, endi mijja qoqqanida, Ashurmat so'fining ingichka ovozi uyg'otvoradi.

Mahallada tunuka garajlarning orasida qolib ketgan eski machit bo'lardi. Unda bola-chaqa velosiped, mopedu tepki aravachalarini qulflab saqlaguvchi edi. Qariyalarning hay-hayi bilan mahalla ahli yaqinda shu vayronani tiklab oldi. Yuz yillik choldevorini xudo asragan ekan, nozandekkina mezanalı machit bo'ldn. Mahallada savobtalab bedanaqadam Ashurmat so'fi, ham topila qoldi. Ovozi shirali, ayniqsa bomdod azoni tunggi tinchlikni shundoqqina ko'tarivoradi. Go'yo mezana naq Sultonning tepasidayu azon xuddi qulog'ida yangraydi. Bezar bo'lgan kirakashning shaytonligi tutdi. Saharlari mashinasini qasdma-qasdiga "du-du"latib, muazzzinga halaqt berishga urinadigan bo'ldi. Har kuni azon vaqtin uyqusirab garajga chiqadi-da, gudogshsh basma-baschalib Ashurmat so'fining ovozini bosib tushmoqchi bo'ladi. Gudogi ham azon ovoziga mos bo'lib chiqardi. Ashurmat mezanadan pastga qaraydi, makruh ovsz qaerdan, qaysi garajdan chiqayotganini bilmaydi.

Bir kecha yana o'sha qilagini qolib, endi mizg'iganida bir turtkidan uyg'onib ketdi. Qarasa hech kim yo'q, serzarda xotini ham kecha yana ketib qolgan edi. Esnga tushib, shuning alamidan qattiq ichib olgandi. Yugurib chiqsa garaj lang ochiq, kayfda qulflash yodidan ko'tarilibdi. Mashina yo'q!

So'tak cho'kkalab olib, yuzini changallagancha o'knrar edi. Bomdodga turgan qari-qartang barmoq tishlab, "attaig" lab qolishdi.

Nima ham qilish mumkin? Machitu mezana ming yillik, "Jiguli" esa omonat...